



## SALOHIDDIN MAMAJONOV—UYG‘UNSHUNOS

**Sodiqova Dilshoda Raimqul qizi,**

*ToshDO‘TAU magistratura*

*Adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi yo‘nalishi*

[dilshodasodiqova37@gmail.com](mailto:dilshodasodiqova37@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Salohiddin Mamajonov talqinida Uyg‘un ijodining badiiy va g‘oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda adibning dramatik asarlarida yaratilgan obrazlar tizimi, qahramonlar xarakteri hamda dramatik konfliktlarning badiiy ifodasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Uyg‘un dramaturgiyasida insoniy fazilatlar, hayotiy muammolar va ijtimoiy munosabatlarning aks etishi adabiyotshunos qarashlari asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida Uyg‘un asarlarining badiiy-estetik ahamiyati va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Uyg‘un, Salohiddin Mamajonov, dramaturgiya, obraz, dramatik konflikt, badiiy talqin, adabiyotshunoslik, o‘zbek adabiyoti.

**Annotation.** This article analyzes the artistic and ideological features of the works of Uyg‘un in the interpretation of the literary scholar Salohiddin Mamajonov. The study examines the system of characters created in the writer’s dramatic works, the nature of the characters, and the artistic expression of dramatic conflicts. It also highlights how human qualities, social relations, and life problems are reflected in Uyg‘un’s dramaturgy based on Mamajonov’s critical views. The research discusses the artistic and aesthetic significance of Uyg‘un’s works and their place in Uzbek literature.

**Keywords:** Uyg‘un, Salohiddin Mamajonov, dramaturgy, character, dramatic conflict, artistic interpretation, literary criticism, Uzbek literature.

Xassos lirik shoir va sermahsul dramaturg Uyg‘un o‘zbek adabiyotining serqirra ijodkorlari Hamid Olimjon, Oybek, G‘ofur G‘ulom kabi yozuvchilar bilan tengdosh va hamkasb bo‘lib, zamonaviy o‘zbek adabiyotining yuksalishiga o‘zing munosib hissasibi qo‘sha olgan ijodkorlardandir. Munaqqid Salohiddin Mamajonov Uyg‘un haqida yozar ekan, “O‘zbekistonda Uyg‘un she‘rlari kirmagan uy, uning pyesalari o‘ynalmagan sahna yo‘q. Uyg‘un o‘zining bahor faslidek musaffo, sho‘x, nazokatli, serishva va serbo‘yoq she‘rlari bilan mazmuni, voqeasi, qahramonlar taqdiri, ijod va kurashi, olg‘a surgan kuchli g‘oyali dramalari bilan kitobxonlar va tamoshabinlarning chuqur hurmat va muhabbatiga sazovor bo‘ldi”, deydi Salohiddin Mamajonov Uyg‘un ijodiga bag‘ishlangan, 1965-yil Toshkentda O‘zbekiston KP MKning nashriyotida chiqqan kichik hajmli “Uyg‘un” nomli yana bir tadqiqotida. Uyg‘un ijodiga bag‘ishlangan ushbu kichik tadqiqotda munaqqid shoirning adabiyotimizdagi o‘rnini kengroq yoritishga harakat qiladi. Avvalo, Uyg‘un hassos lirik shoir va sermahsul dramaturg sifatida baholanadi. U o‘z davrining yirik adiblari bilan bir qatorda ijod qilgan va o‘zbek adabiyotining rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkor sifatida ko‘rsatiladi.

Munaqqid ayniqsa shoir ijodida bahor mavzusi alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Uyg‘unning dastlabki she‘rlaridan boshlab bahor obrazi yetakchi mavzuga aylangan. Bu yerda bahor shunchaki fasl emas, balki yangilanish va go‘zallik timsoli sifatida



tasvirlanadi. Shoir tabiat manzaralarini chiroyli, rang-barang tasvirlar orqali ifodalaydi. Shu bilan birga, munaqqid Uyg'unning ilk ijodida ayrim kamchiliklar ham bo'lganini ko'rsatadi. Masalan, "chechak", "chaman", "kulgi" kabi so'zlar ko'p takrorlangan. Ba'zi she'rlarda tasvirlar bir xil ohangda ketgani seziladi. Bu esa yosh shoirning hali izlanish bosqichida bo'lganidan dalolat beradi. Lekin muhim tomoni shundaki, Uyg'un o'z kamchiliklarini tushuna olgan va keyingi ijodida ularni bartaraf etishga harakat qilgan. Munaqqidning fikricha, Uyg'unning yutug'i shundaki, u tabiat tasvirini inson hayoti bilan bog'lay olgan. Tabiat manzaralari orqali inson ruhiyati, quvonch va iztiroblari ochib beriladi. Ayrim she'rlarda esa tabiat bilan inson taqdiri o'rtasida qarama-qarshilik berilib, bu orqali yanada kuchli ta'sir hosil qilingan. Umuman olganda, munaqqid Uyg'unni o'z ovozi, o'z uslubi bor shoir sifatida baholaydi. Uning she'rlari lirik ruh, samimiyat va hayotiylik bilan ajralib turadi. Yutuq va kamchiliklari bilan birga Uyg'un o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallagan ijodkor sifatida ko'rsatiladi.

Uyg'un ijodining keyingi bosqichida bahor mavzusi yanada kengroq ma'no kasb eta boshlaydi. Munaqqid ta'kidlaganidek, shoir endi faqat bahor faslini emas, balki kuz, qish va yoz fasllari orqali ham o'z estetik qarashlarini ifodalay oladi. "Har faslning o'z xislati bor" degan fikr aslida shoirning hayotga kengroq nigoh bilan qaray boshlaganini ko'rsatadi. Bu yerda fasllar shunchaki tabiat hodisasi emas, balki ma'naviy holat va zamon belgisi sifatida talqin qilinadi.

Munaqqid Uyg'unning ayniqsa syujetli she'rlariga alohida to'xtaladi. "Gulasal", "Nazir otaning g'azabi", "Jontemir" kabi asarlarida shoir oddiy hayotiy voqea orqali katta ijtimoiy va ma'naviy masalalarni ochishga harakat qiladi. Bu asarlarda lirik ruh saqlanib qolgan holda, qahramon xarakteri aniq va jonli tasvirlanadi. Masalan, "Gulasal" obrazida yangi hayotga moslashgan, o'z fikriga ega, qat'iyatli ayol siymosi yaratiladi. Munaqqidning fikricha, bu obraz shunchaki bitta ayol timsoli emas, balki jamiyatda shakllanayotgan yangi inson tipining ifodasidir. Shu bilan birga, munaqqid Uyg'un ijodidagi ayrim takrorlanishlarga ham e'tibor qaratadi. Ba'zi syujetli she'rlarda voqealar rivoji va kompozitsiya jihatdan o'xshashlik borligi qayd etiladi. Masalan, "Kolxozchi qiz", "Mirza Hamdam", "Brigadir Karim" kabi asarlarda umumiy qurilish bir-biriga yaqin. Bu esa shoirning topgan badiiy usulini ko'p qo'llaganidan dalolat beradi. Lekin shunga qaramay, "Jontemir" va "Nazir otaning g'azabi" kabi asarlar o'zining badiiy pishiqligi bilan ajralib turadi.

"Jontemir" poemasiida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Munaqqidning ko'rsatishicha, bu asarda tabiat shunchaki fon emas, balki g'oyani ochuvchi asosiy vositaga aylanadi. Jontemirning ruhiy holati tabiat manzaralari bilan uyg'un holda beriladi. Asar boshida tabiat go'zal tasvirlansa-da, qahramon bu go'zallikdan zavq ola olmaydi. Bu



orqali shoir inson erksiz bo'lsa, u tabiat go'zalligini ham to'liq his qila olmasligini ko'rsatadi.

Shoir poemaning badiiy yetukligi ustida ayniqsa katta mehnat qilgan. Asarning bir bandidan ikkinchi bandiga o'tilar ekan, ularning har birida alohida bir vazifa qo'llanganligini sezish mumkin. Unda jonlantirish ham, kuchaytirish ham, anafora ham, ritorik so'roq ham, ko'p nuqta ham, ko'chirish ham, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish ham bor. Bular vaziyat, holat, voqea va tasvirni chizish uchun aniq xizmat qiladi. Ayniqsa Uyg'un misraning istagan o'rinda anaforiga murojaat etib, she'r ma'nosini kuchaytirish, lirik ohangni kuchaytirish, musiqaviylikni oshirishga erishadi:

**Na** xotin, **na** farzand ko'rmagan,

Kimsasiz, bechora, bir yigit...

**Biri** batrak, **biri** chorikor.

**Biri** malay, **biri** nonga zor...

**Oyning ko'k nuriga** ko'milib,

**Oyning ko'k nurida** cho'milib...

Keyingi boblarda esa qahramon hayotidagi o'zgarishlar bilan birga tabiat tasviri ham o'zgaradi. Endi tabiat qahramon bilan uyg'unlashadi, quvonch va harakat paydo bo'ladi. Bu o'zgarish shoirning asosiy badiiy yutug'i sifatida baholanadi. Umuman olganda, munaqqid Uyg'unni tabiat va inson ruhiyatini nozik his qilgan, obraz yaratishda sodda, lekin ta'sirchan vositalardan foydalangan ijodkor sifatida baholaydi. Uning epitet va tasvirlari ko'pincha oddiy so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, o'rinli qo'llangani sababli kuchli badiiy ta'sir uyg'otadi. Ayniqsa, "Jontemir" poemasi o'zbek adabiyotida yetuk badiiy asar sifatida e'tirof etiladi. Shoir tabiat manzaralarini shunchaki fon sifatida emas, balki asarning g'oyaviy mazmunini ochuvchi muhim badiiy vosita sifatida tasvirlaydi. Asar boshida qahramon go'zal tabiat manzaralari orasida tasvirlanadi. Bulbulning sayrashi, rang-barang gullarning jilvasi, mayin shamol va tog'larning sokinligi tasvirlangan bo'lsa-da, Jontemir bu go'zalliklardan zavq ola olmaydi. Bu holat qahramonning ruhiy kechinmalari va ichki iztiroblarini yanada yaqqolroq ochib beradi. Shoir tabiat manzaralarini qahramonning ruhiy holati bilan uyg'un holda tasvirlaydi. Jontemirning ichki kechinmalari, hayotiy qiyinchiliklari va iztiroblari sababli u atrofidagi go'zallikni to'liq his qila olmaydi. Shu orqali shoir inson ruhiyati bilan tashqi muhit o'rtasidagi bog'liqlikni badiiy tarzda ifodalaydi. Poemaning keyingi qismlarida esa qahramon hayotida ma'lum o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar bilan birga tabiat tasviri ham boshqa ohang kasb etadi. Endi qahramon tabiat go'zalligini his eta boshlaydi, uning kayfiyati va tabiat manzaralari o'rtasida uyg'unlik paydo bo'ladi. Natijada tabiat obrazlari asarda nafaqat estetik tasvir, balki qahramonning ruhiy o'sishini ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Umuman olganda, Uyg'un tabiat tasvirini inson ruhiyati



bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlay olgan shoir sifatida ajralib turadi. Uning she‘riyatida tabiat manzaralari oddiy tasvir bo‘lib qolmay, balki insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va hayotga bo‘lgan munosabatini ochib beruvchi muhim badiiy unsurga aylanadi.

Uyg‘un she‘riyatida urush mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Bu davr she‘rlarida shoirning asosiy kayfiyati ikki muhim tuyg‘u – g‘azab va muhabbat orqali ifodalanadi. Shoir ona-yurtga bo‘lgan chuqur mehrini, tinch va go‘zal hayotga bo‘lgan sadoqatini dushmanga nisbatan keskin nafrat va g‘azab bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Shu bois uning bu davr she‘riyatini shartli ravishda “g‘azab va muhabbat simfoniyasi” deb atash mumkin. Shoirning fikricha, insonning chinakam g‘azabi aslida uning chuqur muhabbatidan kelib chiqadi. Vatanini, xalqini va ona tabiatni sevgan insongina ularni yo‘q qilishga qaratilgan kuchlarga nisbatan keskin nafrat bilan qaray oladi. Shu sababli Uyg‘un she‘rlarida muhabbat va g‘azab bir-birini to‘ldirib boradi. Bu ikki tuyg‘u shoirning poetik ifodasida asosiy ruhiy ohangni tashkil etadi.

Uyg‘un urush mavzusini yoritishda ham o‘zining sevimli obrazlaridan – tabiat timsollaridan keng foydalanadi. Ayniqsa, bahor obrazi uning she‘riyatida muhim ramziy ma‘no kasb etadi. Bahor shoir tasavvurida hayot, yangilanish va go‘zallik timsoli sifatida talqin qilinadi. Urush esa bu go‘zallikka qarshi turgan, uni yo‘q qilishga urinayotgan kuch sifatida tasvirlanadi. Shu tariqa shoir bahor obraziga qarama-qarshi ravishda kuz yoki xazon obrazini qo‘llaydi. Xazon vayronalik, sovuqlik va halokatni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir ayrim she‘rlarida dushman obrazini ham tabiat timsollari orqali ochib beradi. Masalan, u yovuz kuchlarni boyo‘g‘li, zovur yoki xazon kabi obrazlar bilan ifodalaydi. Bunday ramziy tasvirlar orqali shoir urushning vayronkor mohiyatini yanada ta‘sirchanroq ko‘rsatishga erishadi.

Deydilarki fashist - shum qadam  
Qaydan o‘tsa gullar so‘ladi  
Suvlar qurib, tuproqlar chirib  
Chamanzorlar xazon bo‘ladi...

Shu bilan birga, u gullar, lolalar, bulbul kabi obrazlardan foydalanib, urushdan oldingi go‘zal hayotni eslatadi. Natijada o‘quvchi tasavvurida ikki xil manzara – tinch hayot va uning buzilishi o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik yanada ravshanlashadi.

Uyg‘un tabiat obrazlaridan foydalanishda xalq og‘zaki ijodi va klassik she‘riyat an‘analariga ham tayangan. Gullar, bulbul, lola, xazon kabi timsollar o‘zbek she‘riyatida qadimdan mavjud bo‘lib, shoir ularni yangi badiiy vazifada qo‘llaydi. Natijada bu obrazlar shoirning g‘oyaviy niyatini ifodalovchi kuchli poetik vositaga aylanadi. Ayrim she‘rlarida shoirning kuchli hissiy to‘lqini ba‘zan haddan tashqari keskin ifodalarga ham olib keladi. Ba‘zi o‘rinlarda g‘azab hissi ortiqcha bo‘rttirilgan yoki badiiy ifoda cho‘zilib ketgan



holatlar ham uchraydi. Biroq bu kamchiliklar shoir ijodining umumiy badiiy yutug'ini kamaytirmaydi. Aksincha, bu davrda uning she'riyatida obrazlarning hayotiyliigi, emotsional kuchi va poetik ifoda imkoniyatlari yanada kengayganini ko'rish mumkin. Umuman olganda, Uyg'un urush davri she'riyatida tabiat obrazlari, ramziy tasvirlar va kuchli hissiy ohang orqali insoniy tuyg'ularni teran ifodalay olgan shoir sifatida namoyon bo'ladi. Uning bu davr asarlarida muhabbat, g'azab, sog'inch va umid kabi tuyg'ular badiiy uyg'unlikda tasvirlanib, she'riyatning ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotshunos Salohiddin Mamajonov Uyg'un she'riyatining badiiy xususiyatlarini bir necha muhim jihatlar orqali tahlil qilar ekan, munaqqid, avvalo, shoirning xalq ruhiyatiga yaqin bo'lgan samimiy ifoda uslubiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, Uyg'un she'rlarining kuchi sun'iy bezaklarda emas, balki qalbdan chiqqan sodda va ta'sirchan so'zlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u shoir ijodining asosiy tamoyillaridan biri sifatida samimiylik va rostgo'ylikni ko'rsatadi. Munaqqid bu holatni quyidagi fikr bilan ifodalaydi: "Xalqni oyoqqa turg'izish, uning g'azabiga g'azab, qudratiga qudrat qo'shish uchun samimiy va rost so'zlash, yorqin, yangi, kuchli obrazlar yaratish zarur edi." Demak, Uyg'un she'riyatida badiiy ta'sir kuchi aynan ana shu samimiylik va obrazlarning jonliligi bilan bog'liq. Mamajonov shoir lirikasida ona va vatan obrazining bir-biri bilan uyg'un holda berilishi masalasiga ham alohida to'xtaladi. Uyg'un ko'pincha Vatanni ona timsoli orqali tasvirlaydi va shu orqali Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada ta'sirchanroq ifodalaydi. Munaqqid bu haqda shunday yozadi: "Shoir ona timsolida butun Vatanni tasavvur qildi." Bu usul shoirga Vatan tushunchasini oddiy siyosiy yoki mavhum g'oya sifatida emas, balki inson qalbiga yaqin, mehrlil va muqaddas obraz sifatida ko'rsatish imkonini bergan. Ayniqsa "Xayrlashuv" she'rida ona bilan o'g'il o'rtasidagi dialog orqali bu fikr juda jonli tasvirlanadi. Onaning o'g'liga bergan nasihatlar xalq dostonlaridagi an'anaviy ruhni eslatadi.

O'g'lim, arslon izidan hech qaytmaydi,  
Mard yigitlar yengildim deb aytmaydi.  
Hech to'xtovsiz yov ustiga yurish qil!  
Tomchi qoning qolgunicha urush qil!  
Nobud bo'lsang o'rningga men boraman,  
Yovuzlarni tuproqlarga qoraman.  
Oq yo'l, bolam, qutli bo'lsin safaring  
Dunyolarga savlat bo'lsin zafaring.  
Bor lochinim, bor shunqorim, yaxshi bor!  
Bor arslonim, nomus-orim, yaxshi bor!

Munaqqid Uyg'un she'riyatining yana bir muhim jihati sifatida xalq og'zaki ijodi an'analarning davom ettirilishini ko'rsatadi. "Xayrlashuv" she'rida ona va o'g'il o'rtasidagi suhbat, nasihat ohangi, hatto ifoda uslubi ham xalq dostonlaridagi motivlarga



yaqin. Shu sababli Mamajonov ushbu holatni alohida ta'kidlab, "Qarang, bunda xalq ijodining butun ruhi bor" deb yozadi. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, Uyg'un faqat zamonaviy mavzularni yozib qolmay, balki xalq ijodining badiiy tajribasidan ham samarali foydalangan.

Mamajonov Uyg'un lirikasida sevgi mavzusi ham o'ziga xos tarzda talqin qilinishini ko'rsatadi. Masalan, "Surat" she'rida qizning sevgilisiga yozgan javobi oddiy sevgi ifodasi emas. Qiz tabiatdagi go'zal narsalarni o'ziga qiyoslab tasvirlaydi: oy, yulduz, hilol, lola, g'uncha kabi obrazlar orqali ma'shuqaning qiyofasi chiziladi. Munaqqidning ta'kidlashicha, bu o'xshatishlar maqtanish yoki o'zini ko'rsatish uchun emas, balki yigitni ruhlantirish uchun xizmat qiladi. Qiz sevgilisini kurashda bardoshli bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham she'rning ichki mazmunida sevgi bilan birga sadoqat va matonat g'oyasi ham sezilib turadi.

Yuzlarimni ko'rmak istasang,  
Yo oyga boq, yoki kunga boq.  
Sochlarimni ko'rmak istasang,  
Uyqudan kech, oysiz tunga boq.

Qoshlarimni ko'rmak istasang,  
Ko'kka qara, chiqqanda hilol.  
Ko'zlarimni ko'rmak istasang,  
Nazaringni yulduzlarga sol.

Yonog'imni ko'rmak istasang,  
Sahroga chiq, lolazorga yur.  
Lablarimni ko'rmak istasang,  
Sahar turib g'unchaga yuz bur.  
Tishlarimni ko'rmak istasang,  
Havasingni marvaridga ayt.

Mamajonov shoir ijodida tabiat obrazlarining faol ishlatilishiga ham katta e'tibor beradi. Uyg'un tabiat manzaralarini shunchaki tasvirlab qo'ymaydi, balki ularni ma'lum bir ma'no yuklangan ramz sifatida ishlatadi. Masalan, qor, tong, bulbul, g'uncha kabi obrazlar shoir tasavvurida yangi ma'no kasb etadi. Munaqqid shoirning kuzatuvchanligini alohida ta'kidlab, uning tabiatdagi eng kichik hodisalardan ham katta badiiy ma'no chiqarishini ko'rsatadi. U shunday yozadi: "Shoir tabiatning har bir kichik elementida dushmanga nisbatan g'azab va intiqom olovini ko'radi." Bu fikr shoir tasvirining obrazli va ta'sirchan ekanini ko'rsatadi. Mamajonov shuningdek Uyg'unning badiiy tasavvuri kengligini ham ko'rsatib beradi. Masalan, tong manzarasini tasvirlashda shoir ikki xil



kayfiyat yaratadi: bir holatda tong manzarasi fojeali, boshqa holatda esa quvonchli ruhda beriladi. Bu esa shoirning tasviriy tafakkuri kuchli ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, munaqqid Uyg'unning faqat shoir sifatida emas, balki dramaturg sifatida ham faoliyat ko'rsatganini ko'rsatadi. Ayniqsa, u yozgan "Ona" dramasi va Izzat Sulton bilan hamkorlikda yaratilgan "Alisher Navoiy" pyesasi haqida to'xtaladi. Mamajonovning fikricha, ushbu asarda tarixiy shaxs obrazini yaratishda katta badiiy mahorat namoyon bo'lgan. Dramaturglar Alisher Navoiy shaxsini faqat shoir sifatida emas, balki chuqur fikrlaydigan, adolatni qadrlaydigan inson sifatida tasvirlashga harakat qilganlar. Umuman olganda, Mamajonov talqinida Uyg'un ijodi bir necha muhim jihatlar bilan ajralib turadi: samimiy lirika, xalq og'zaki ijodi an'analaridan foydalanish, tabiat obrazlarining keng qo'llanishi, sevgi va sadoqat mavzularining o'ziga xos talqini hamda dramaturgiyadagi izlanishlar. Munaqqid aynan shu jihatlar orqali Uyg'un ijodining badiiy qimmatini ochib berishga harakat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Salohiddin Mamajonov.(1965) Uyg'un.Toshkent: O'zbekiston KP MKning nashriyoti.
2. Uyg'un, Izzat Sulton.(1942).Alisher Navoiy.Toshkent: O'zbekiston.
3. Salohiddin Mamajonov.(1972).Uslub jilolari. Toshkent: Adabiyot va san'at

